

## YOSHLARDA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISHDA TARIXIY ONGNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI

**Qurbonova Farida Orifovna**

Samarqand davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi

### SOCIAL-PHILOSOPHICAL MECHANISMS OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN STRENGTHENING PATRIOTISM IN YOUTH

**Kurbanova Farida Orifovna**

Researcher of the Samarkand State Institute of Foreign  
Languages

### СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ В УКРЕПЛЕНИИ ПАТРИОТИЗМА В МОЛОДЕЖИ

**Курбанова Фариди Орифовна**

научный сотрудник Самаркандского государственного  
института иностранных языков



<https://orcid.org/0244-0233-0340-0656>

[farida@gmail.com](mailto:farida@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlarda vatanparvarlikni kuchaytirishda tarixiy ongning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bo‘yicha bir qator ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, tarix, madaniyat, mafkura, jarayon.

**Abstract:** This article analyzes the work of a number of researchers on the formation and education of the sense of patriotism, the socio-philosophical mechanisms of historical consciousness in strengthening patriotism among young people.

**Keywords:** youth, education, patriotism, history, culture, ideology, process.

**Аннотация:** В статье анализируются работы ряда исследователей по формированию и воспитанию чувства патриотизма, социально-философским механизмам исторического сознания в укреплении патриотизма среди молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, образование, патриотизм, история, культура, идеология, процесс.

**Kirish.** Bugun yoshlarimizning zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida ularga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish ta’lim-tarbiya tizimining strategik yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday deydi: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu - yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bu yo‘nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning

samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e’tibor berishimiz zarur” [1].

Ta’kidlash lozimki, globallashuv jarayoni insonni faqat o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy bilan cheklamay, dunyo mamlakatlari, xalqlari, fan va madaniyat yutuqlaridan xabardor bo‘lish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonda mafkuraviy kurashlar kuchayishi natijasida “dunyo fuqarosi”, ya’ni “kosmopolitizm g‘oyasi”ni va “ommiy madaniyat”ni targ‘ib qilishga ko‘proq siyosiy-mafkuraviy tus berish avj olishi kuzatiladi. Kosmopolitik dunyoqarash va

ommaviy madaniyatni targ'ib qilish, yoshlarda ona vataniga bo'lgan mehr-muhabbatini va vatanparvarlik tuyg'usini so'ndirishi, vatanni sevmalik va o'z xalqi kelajagi haqida qayg'urmaslik, o'z xalqi, millati va o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy guruh yoki qatlamga xos xususiyatlarni, qadriyatlarni tan olmaslik yoki mensimaslik hissiyotlarini oshishi kuzatilmoqda. Natijada, ayrim yoshlar yaxshi yashash va mehnat qilishga sharoit mavjud joyni "vatan" tutishi, milliy urf-odat va an'analarga bepisand munosabatda bo'lishiga olib kelmoqda. Mazkur omillardan turli siyosiy kuchlar manfaatdor bo'lib, ularning ta'sirida yoshlar ongi, tafakkuri va vatanga dahldorlik hissini manipulyatsiya qilish orqali o'z maqsadlarida foydalanishiga sharoit yaratilmoqda. O'z navbatida, qayd etilgan holatlar ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va tarbiyalash ehtiyoji oshishiga olib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar ta'sirida milliy o'zlikni asrash va vatanparvarlik tuyg'usini singdirish ta'lim-tarbiya sohasidagi pedagogik kadrlar va mutaxassislar hamda ota-onalar oldiga ushbu hissiyotlarni shakllantirish yo'llari va omillari aniqlashtirish hamda tegishli mezonlarni belgilash vazifalarini qo'ymoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishdagi ishlarni Davlat Rahbarining yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash bo'yicha bergan ko'rsatmalarini inobatga olgan holda tashkil qilish hamda tegishli ilmiy yondashuvni talab qilmoqda.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va tarbiyalash bo'yicha bir qator tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilinib, bunda avvalo vatanparvarlikning turli yo'nalishlarida shakllanishiga e'tibor qaratadilar. Vatanparvarlik tarbiyasining ilg'or yo'nalishlarini tadqiq etgan olimlar I.Y.Murzina, S.V.Kazakova avlodlar nazariyasidan kelib chiqib fuqaroviy vatanparvarlik tarbiyasi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatadi [2]. Polshalik mutaxassis J.Stanislawek vatanparvarlikni ijtimoiy birdamlikning kuchli, millatchilikni esa radikal ko'rinishi sifatida ta'riflaydi [3]. O'zbekistonlik tadqiqotchilar N.A.Yuldasheva, M.M.Raximov yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularda vatani va eli bilan faxrlanish, himoyasiga shay turish tuyg'usini rivojlantirishda

adabiy ta'lim o'rniga e'tibor qaratadi [4]. Shu bilan birga, Sh.M.Jo'rayev ilmiy maqolalarida oliy ta'lim muassasalari talabalarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tadbirlarga alohida o'rin beradi [5]. O'z navbatida "vatan" va "vatanparvarlik" tushunchalarini qisqacha ta'riflab o'tish lozim hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilidagi "vatan" so'zi arabchada "yashadi, hayot kechirdi" fe'lining masdari bo'lib, kishining tug'ilib o'sib yashayotgan joyi ma'nolarini anglatadi. Vatanparvar so'zi esa o'z vatanini sevuvchi va uning manfaati uchun jonbozlik ko'rsatuvchi degan ma'nolarni anglatadi [6]. Vatanparvarlik tushunchasi o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda - Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushuncha, vatan oldidagi mas'uliyat va burchni anglash tushunchasi sifatida ta'rif beriladi [7].

**Tahlil va natijalar.** Vatanparvarlik tushunchasi adabiyotlarda keng va tor ma'nolarda tushunilib, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashning fuqaroviy va harbiy vatanparvarlik yo'nalishlari ajratib ko'rsatilgan. Shu bilan birga, siyosiy psixologiyaga oid chet ellik mutaxassislarning tadqiqotlarida "ko'r-ko'rona" va "konstruktiv" vatanparvarlikka ajratib o'rganilgan [8]. Jumladan, fuqaroviy vatanparvarlik - shaxsning fuqarolik pozitsiyasi sifatida izohlanib, yoshlarda fuqarolik burchi, mas'uliyat, davlatchilikka hurmat kabi fazilatlarini shakllantirishning tizimli jarayoni hsioblanadi [9]. Shuningdek, "ko'r-ko'rona" vatanparvarlik g'oyaviy va siyosiy jihatdan millatchilikka yaqinligi bilan "konstruktiv" vatanparvarlikdan farq qiladi. Ta'kidlash lozimki, "ko'r-ko'rona" vatanparvarlik millatchilikka juda yaqin tushuncha bo'lib, ushbu turdagi vatanparvarlik tuyg'ulari bir qator davlatlarda xalqni tushkunlikdan olib chiqish va millat sifatida jiplashishga xizmat qilgan. Misol uchun, Yaponiya xalqi ikkinchi jahon urushidan so'ng tushkunlik kayfiyatiga berilgan. Ushbu holat yapon hukumati oldiga xalqni jiplashtirish va vatanparvarlik tuyg'usini oshirish

vazifasini qoʻygan. Oʻz navbatida yapon hukumati millatga urgʻu bergan holdagi vatanparvarlikni, yaʼni “koʻr-koʻrona” vatanparvarlik tuygʻusini kuchaytirish choralari koʻrgan va ushbu chora-tadbir oʻz samarasini bergan [10]. Shu bilan birga, vatanparvarlik tuygʻusi fuqarolarda tashqi tahdidlar natijasida oshishi kuzatiladi. Misol uchun, AQShning Chikago universiteti olimlari olib borgan tadqiqotlarida, AQShning Venesuelaga tahdidi davrida hamda Ozarbayjon va Armaniston mojarolari davomida Venesuela hamda Ozarbayjon fuqarolarida vatanparvarlik tuygʻusi kuchayganligini aniqlagan [12].

Oʻzbekiston koʻp millatli davlat boʻlganligi hamda milliy qadriyatlar va mentalitetdan kelib chiqqan holda, yoshlarda konstruktiv-fuqaroviy vatanparvarlikni oshirish asosiy yoʻnalish sifatida oʻrganildi. Oʻz navbatida yoshlarni konstruktiv-fuqaroviy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni chuqurroq tahlil qilib, uni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy, madaniy, tarixiy, ekologik, ilmiy va mudofaa sohasidagi vatanparvarlikni tarbiyalash kabi yoʻnalishlarga ajratish muhim.

**Xulosa va takliflar.** Yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yuqori koʻrsatkich bergan omillardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yoshlarda vatanparvarlikni kuchaytirishda tarixiy ongning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqish, xususan, talabalarining boʻsh vaqtlarida ularda qiziqish uygʻotgan sohalardagi tadbirlarni oʻtkazish va materiallar taqdim qilishda vatanparvarlik gʻoyalarini singdirib borish lozim. Shu bilan birga, yangi chop etilayotgan mutaxassislik adabiyotlarda fandan kelib chiqqan holda milliy qahramonlar, olimlar, boy tariximiz va davlatchiligimiz hamda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritib oʻtish orqali vatanparvarlik hissiyatini kuchaytirish mumkin. Shuningdek, talabalar keng foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlarda boy tariximiz, milliy urf-odatlarimiz, vatanparvar ajdolarimiz (Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar), millat tarixi va davlatchiligi, taniqli olimlarning hayoti va ijodi, vatan himoyachilarining sharaflari kasbi, taniqli oʻzbek sportchilari hamda boshqa sohalar boʻyicha maʼlumotlar va videoroliklarni joylashtirib borish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон Стратегияси. “Oʻzbekiston” нашриёти, 2021. 257-бет.
2. Мурзина И.Я., Казакова С.В. Перспективные направления патриотического воспитания. Образование и наука. 2019.
3. Stanisławek J. Patriotyzm. Edukacja Filozoficzna 66/2018. DOI: 10.14394/edufil.2018.0015 (Дата обращения: 03.04.2022).
4. Юлдашева Н.А., Рахимов М.М. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш маънавий-маърифий уйғонишнинг асосий муаммоси сифатида. 03.04.2022.
5. Жўраев Ш.М. Ёшларни харбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг устувор вазифалари // Academic research in educational sciences. 2020.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). -Т. “Университет” нашриёти. 2003. 88-бет.
7. Маънавий асосий тушунчалар изоҳли луғати. / Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти: -Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2010. 104-бет.
8. Schatz, R. T., Staub, E., & Lavine, H. (1999). On the varieties of national attachment: Blind versus constructive patriotism. *Political Psychology*, 20, 151-174.
9. Корниенко Е.Р. Гражданско-патриотическое воспитание личности обучающихся в контексте целевой программы университета // Современное педагогическое образование. 2019.
10. World's Most And Least Patriotic Countries. [https://www.forbes.com/2008/07/02/world-national-pride-oped-cx\\_sp\\_0701\\_patriot.html?sh=3d3fbb83653c](https://www.forbes.com/2008/07/02/world-national-pride-oped-cx_sp_0701_patriot.html?sh=3d3fbb83653c) (дата обращения: 21.04.2022).
11. Азербайджанцы - самая патриотичная нация в Европе. <https://haqqin.az/news/214642> (дата обращения: 21.04.2022).